


2017 -2018 yillar I -chorak yakunlariga ko'ra Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari to'g'risida taxliliy MA'LUMOT

T/r	Asosiy faoliyat turi bo'yicha ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2017 yil I-chorak amalda	2018 yil I-chorak amalda	2017 yilning I-choragiga nisbatan(%)
	Bajarilgan ish xajmi, jami	mlrd.so'm	302,0	470,7	155,9
	shu jumladan:				
1	Investitsiya dasturi bo'yicha	mlrd.so'm	59,7*	74,7*	125,1
2	To'la ta'mirlash ishlari	mlrd.so'm	9,4	9,5	101,3
3	Mintaqaviy yo'llarni ta'mirlash ("Viloyat mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUKlar buyurtmasi bilan)	mlrd.so'm	11,9	13,0	109,2
		km	201	210	104,5
4	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	mlrd.so'm	195,3	346,8	177,6
		km	418	480	114,8
5	Sanoat ishlab	mlrd.so'm	25,7	26,7	104,1

	chiqarish hajmi				
6	Yangi ish joylarini yaratish	kishi	64	124	194,0
7	Qora metall chiqindilarini topshirish	tonna	4094	4100	100,1

* Xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobiga, xorijiy pudrat korxonalarini tomonidan bajarilgan ish hajmi bilan birga.

Qo'mitatizimidagi korxonalar va tashkilotlarda 2018 yilning I choragi davomida Investitsiyadasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida 74,7 mlrd. so'mlik qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2017 yilning xuddishu davriga nisbatan 125 foizni tashkil etadi. Bundantashqari to'la ta'mirlash dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida 9,5 mlrd. so'mlik ta'mir ishlari bajarildi. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning I choragiga nisbatan 101,3 foizni tashkil qiladi. 2018 yilning 1-chorak yakunlari bo'yicha Respublikamizdagi 210 km mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlandi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 7,5 km, Andijonda 17,9 km, Buxoroda 13,4 km, Jizzaxda 6,2 km, Qashqadaryoda 33,4 km, Navoiyda 1,3 km, Namanganda 1,2 km, Samarqandda 4,8 km, Surxandaryoda 77,0 km, Toshkent viloyatida 19,7 km, Farg'onada 15,2 km, Xorazmda 11,2 km hamda Toshkent shahrida 1,2 km mintaqaviy avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlari olib borildi. Mintaqaviy ichki yo'llar ta'miri hajmi esa o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 104,5 foizga oshgan.



2018 yil I choragi davomida Respublika bo'yicha avtomobil yo'llarida **42695 km** uzunlikdagi yo'llardan **480kmdan iborat qismida** joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ularning holati yaxshilandi. Bu esa 2017 yilining I choragiga qaraganda **114,8 foizni** tashkil etadi.

Qo'mita tizimidagi korxonlar tomonidan 2018 yil I choragida **26,7 mlrd.so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur ko'rsatkich 2017 yilining I choragiga nisbatan **104,1 %ni** tashkilotganligini ko'rsatadi.

Tizim korxonlari tomonidan 2018 yil I choragida **124 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu ko'rsatkich esa 2017 yilining mos ravishdagitegishli davriga qaraganda qariyb ikki baravar ortib, **194,0 foizni** tashkil etadi.

Korxonlar tomonidan qora metall chiqindilari topshirishko'rsatkichi 2018 yil I choragida **4100 tonnani** tashkil etadi. Bu – qariyb o'tgan yilgi darajada qolib, kamayishga yo'l qo'yilmagan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat

qo'mitasining 2018 yil I choragida– umumiy bajarilgan ishlar xajmi – **470,7mlrd. so'mlik**dan iborat. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning I choragiga nisbatan bir yarim baravardan ziyodgaoshib, **155,9 %** ni tashkil etganliginiko'rsatadi.